O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI
BO'STON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Andijon viloyati Bo'ston tumani Mustaqillik ko'chasi 51-uy

2024 - yil 15 - yanvar 1-1-19-Q/24 Bo‘ston tumani hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda-Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli

yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga o‘n yildan o‘n besh yilgacha bo‘lgan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga o‘n besh yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi––shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularning Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda- DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarornining 3-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta — 1 sentabr - 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar - 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

-transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

-transport vositasining texnik holati va jixozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

-maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va

ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

-gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jixozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarini texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 15-dekabrdagi “Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 343-1-19-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Tuman hokimining matbuot kotibi (X.Boqiyev), “Bo‘ston” gazetasi mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda mahalliy matbuotda chop etish va uning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

Bo‘ston tumani hokimi **S.A.NOSIROVA**

Bo‘ston tuman hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
1-1-19-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Transport vositalarini yillik davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazish ishchi guruhi

T A R K I B I

1. A. Xodjiyev - Tuman ichki ishlar bo‘limi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l harakat xavfsizligi guruhi katta inspektori - **Guruh rahbari**

2. I.Soyibbayev -Tuman IIB JXX YHXG MA inspektori – **Kotibi**

A’ZOLARI

2. B. Sultonxodjayev -Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i

3. X. Zokirov -tuman Agrosanoat ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i

Bo‘ston tuman hokimining
2024-yil 15-yanvardagi
1-1-19-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududidagi muqobil MTP lar, tashkilotlar, xissadorlik jamiyatlari, kichik korxona va firmalar, fermer xo‘jaliklari transport vositalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish

J A D V A L I

№	Muqobil MTP lar, firma, tashkilot va karxonalar nomi	O‘tkazish vaqti	soati	O‘tkaziladigan joylari	Avto Moto
1	Tuman hokimligi	2024-yil yanvar	09.00-12.00	Korxona garaji	4
2	Bo‘ston Paxta tozalash AJ	2024-yil yanvar	09.00-17.00	Korxona garaji	4
3	Bo‘ston MKT vatanparvar tashkiloti	2024-yil yanvar	09.00-17.00	Korxona garaji	10
4	Bo‘ston obodonlashtirish bo‘limi	2024-yil yanvar	09.00-17.00	Korxona garaji	7
5	XKSF ZIYO 2002 M.X	2024-yil fevral	09.00-17.00	Korxona garaji	3
6	Bexruzbek Dilmurodov MCHJ	2024-yil fevral	09.00-17.00	Korxona garaji	7
7	Bo‘ston tuman kasb hunar maktabi	2024-yil fevral	09.00-17.00	Korxona garaji	7
8	Inavatsion avto ta’lim MCHJ	2024-yil fevaral	09.00-17.00	Korxona garaji	16
9	Ixtisoslashgan Ziyo qurulish XK	2024-yil mart	09.00-17.00	Korxona garaji	7
10	Farxodbek Savdo Barakasi XK	2024-yil mart	09.00-17.00	Korxona garaji	17
11	Roziyaxon Asl Market MCHJ	2024-yil mart	09.00-17.00	Korxona garaji	78
17	YEVRO EKFIN firmasi	2024-yil aprel	09.00-17.00	Korxona garaji	5
13	Gaz ta’minoti UK Bo‘ston tuman filiali	2024-yil aprel	09.00-17.00	Korxona garaji	4
14	Sut sanoat ishonchi MCHJ	2024-yil may	09.00-17.00	Korxona garaji	2
15	Shaxnoza XK	2024-yil may	09.00-17.00	Korxona garaji	3
16	Sayyora favvorasi XK	2024-yil may	09.00-17.00	Korxona garaji	4
17	Ulug‘nor Mazgilsoy IT	2024-yil may	09.00-17.00	Korxona garaji	2
18	Bo‘ston tuman SES	2024-yil iyun	09.00-17.00	Korxona garaji	3
19	Barqaror yo‘llar 2002 MCHJ	2024-yil iyun	09.00-17.00	Korxona garaji	2
20	"SHAHRIXON LION GROUP" XK	2024-yil iyul	09.00-17.00	Korxona garaji	2
21	TRADE INFINITY MCHJ	2024-yil iyul	09.00-17.00	Korxona garaji	2
22	Asr Asl Oqshomi XK	2024-yil avgust	09.00-17.00	Korxona garaji	3
23	Saroy Ziynati XK	2024-yil avgust	09.00-17.00	Korxona garaji	2
24	"OOO "BEGIMOY BINOLARI"	2024-yil sentabr	09.00-17.00	Korxona garaji	2
25	"OOO "BO'Z-IMKON-RIVOJ SL"	2024-yil sentabr	09.00-17.00	Korxona garaji	2
26	Boshqa korxona va tashkilotlar	1- yanvardan 31-dekabrgacha	09.00-17.00	Korxona garaji	

Ilova: Shaxsiy transport vositalari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 175-sonli qarorini 1-ILOVAsiga asosan, Davlat tasarrufidagi transport vositalari esa VM 175-sonli qarori 1-ilova, 1-bob, 5-band, “B-V” kichik bandlariga asosan jadval asosida ko‘rsatilgan kunlarda soat 9.00 dan 17.00 gacha o‘tkaziladi. Bu vaqt mobaynida transport vositalarini ko‘rikdan o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar transport vositalari va ularga tegishli meyoriy hujjatlarni texnik ko‘rikka takdim etishlari shart.